



KUNDALIK-AMALIY TOPSHIRIQLAR VA UHING O'QUVCHILAR KOGNITIV MUSTAQILLIGINI RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI

Abduvaliyev N.A.

*Andijon davlat universiteti «Pedagogika» kafedrasida dotsent
vazifasini bajaruvchisi*

Tayanch soʻzlar: taʼlim jarayoni, topshiriqlar, oʻquvchilarning bilimlarini rivojlantirish, hayotiy-amaliy faoliyat, real vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar, rivojlantiruvchi topshiriqlar, tanqidiy fikrlash, taʼlim tizimi.

Ключевые слова: учебный процесс, задачи, развитие знаний учащихся, жизненно-практическая деятельность, задачи, основанные на реальных ситуациях, развивающие задачи, критическое мышление, образовательная система.

Key words: educational process, tasks, development of students' knowledge, life-practical activity, tasks based on real situations, developmental tasks, critical thinking, educational system.

Резюме:

Maqola taʼlim jarayonida qoʻllaniladigan topshiriqlarning ahamiyati, ulardan samarali foydalanish usullari va ularning oʻquvchilarning bilim va kompetentsiyalarini rivojlantirishdagi oʻrnini tahlil qiladi. Unda asosiy eʼtibor oʻquv va nazorat topshiriqlarining mazmuni, ularning hayotiy-amaliy faoliyatga tayyorlashdagi rolga qaratilgan. Mualliflar oʻquv jarayonida murakkablashib boruvchi topshiriqlar, real vaziyatlarga asoslangan kundalik-amaliy topshiriqlar va rivojlantiruvchi topshiriqlarning oʻrni haqida bahs yuritadilar. Maqolada shuningdek, zamonaviy taʼlimda tanqidiy fikrlash, mustaqil axborot izlash va tadqiqotchilik kompetentsiyalarini rivojlantirishning dolzarbligi taʼkidlanadi. Maqola umumiy taʼlim tizimida oʻquvchilarni hayotiy-amaliy faoliyatga tayyorlash uchun zarur boʻlgan topshiriqlar va ularning taʼlim jarayonidagi oʻrni haqida ilmiy-amaliy tavsiyalarni oʻz ichiga oladi.

Резюме:

В статье анализируется значение заданий, используемых в образовательном процессе, методы их эффективного использования, а также их место в развитии знаний и компетенций учащихся. В ней основное внимание сосредоточено на содержании учебных и контрольных заданий, их роли в подготовке к жизнепрактической деятельности. Авторы рассуждают о роли усложняющихся задач, повседневно-практических задач, основанных на реальных ситуациях, и развивающих задач в образовательном процессе. В статье также подчеркивается актуальность развития критического мышления, самостоятельного поиска информации и исследовательских компетенций в современном образовании. В статье содержатся научно-практические рекомендации о заданиях и их месте в учебном процессе, необходимых для подготовки учащихся к жизнедеятельности в системе общего образования.

Summary:

The article analyzes the importance of tasks used in the educational process, methods of their effective use, and their place in the development of students' knowledge and competencies. In



it, the main attention is focused on the content of educational and control tasks, their role in preparing for life-practical activities. The authors argue about the role of increasingly complex tasks, everyday-practical tasks based on real situations, and developmental tasks in the educational process. The article also emphasizes the relevance of developing critical thinking, independent information seeking and research competencies in modern education. The article contains scientific and practical recommendations about the assignments and their place in the educational process necessary for preparing students for life-practical activities in the general education system.

O‘quv jarayonida qo‘llaniladigan topshiriqlarning asosiy maqsadi olingan bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, turli holatlarda qo‘llab ko‘rish, egallangan bilimni baholashdan iborat. Aksariyat topshiriqlar bir bosqichli topshiriqlardan iborat bo‘lib, bir savol yoki atamani izohlash, bir amalni bajarishdan iborat bo‘ladi. O‘quv va nazorat topshiriqlarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘p topshiriqlar o‘quvchining tayanch va fanlarga kompetentsiyalarini shakllanishiga yetarli vosita vazifasini bajarmaydi hamda ularni hayotiy-amaliy faoliyatga tayyorlashiga xizmat qilmaydi. Amaliyotda topshiriqlar savol tariqasida tahrir qilinadi va faqat o‘zlashtirilgan mavzuga mos ravishda ishlab chiqiladi. O‘quv topshiriqlari dars mashg‘ulotining maqsadiga erishishini belgilab beruvchi indikator vazifasini o‘taydi. O‘quv va nazorat topshiriqlari o‘quv natijalariga erishilganlikni tekshirish imkoniyatini belgilab beradi. Nazorat topshiriqlari o‘quvchidan topshiriqlarni “o‘quv jarayonida emas, sinov jarayonida deb qabul qilish talab etiladi va o‘quvchining hozirgi holatdagi bilim darajasi belgilanadi”.

C. Aufschnaiter “topshiriqlarning o‘quv mashg‘ulotida tizimli qo‘llash optimal o‘quv jarayoniga hal qiluvchi ta’sir”ga ega ekanligini ta’kidlaydi hamda o‘z mulohazalarini davom ettirib “topshiriqlar an’anasi”ni rivojlanishiga yana bir muhim omil bu o‘quvchilarning mustaqil tushuntirib berish ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat ekanligini bayon qiladi. Topshiriqlarda o‘quvchilarga taqdim qilinadigan ma’lumotlar tayyor holatda emas, balki mustaqil ravishda qidirish, takrorlash va boshqa topshiriqlar bilan taqqoslash orqali ma’lumotlar topishi nazarda tutilishi kerak. Topshiriqlar o‘quv jarayonining davom etishiga qarab murakkablashib borishi lozim.

X. Gudjons “murakkab bo‘lib boruvchi topshiriqlarni bajarish orqali bilimlar yangidan tizimlashib boradi. Amaliyotda qo‘llanilishiga oid topshiriqlarni bajarish orqali esa boshqa bilimlar bilan mujassamlashib, tayanch bilimlarga bog‘lanib boradi” degan xulosaga kelgan.

O‘qituvchi yangi dars mavzusini tushuntirish, o‘quvchilarga shu mavzuga oid topshiriqlarni bajarishda mustaqil topshiriq namunalaridan yechish, o‘z yechimini taqdimot qilish imkoniyatini berishi lozim bo‘ladi. Bu orqali o‘qituvchi o‘quvchining “hozirgi holati” va “potensial holati”ga baho beradi.



Hozirgi kunda o‘quv jarayonida keng qo‘llaniladigan topshiriqlar quyidagi jihatlari bilan tavsiflanadi:

1. O‘quv mashg‘ulotlarida ma’lum fanga oid bilimlar tizimli o‘qitiladi va mavzular oddiydan murakkabga qarab tizimlab chiqilgan. Bu ketma-ketlik o‘quvchilarning tizimli bilim olishini ta’minlaydi, birinchi mavzu bilan ikkinchi mavzu uzviy bog‘langan bo‘ladi. Topshiriqlar ham shu tamoyilga mos ravishda shakllantiriladi. Bu tizimlilikning kamchiligi esa o‘quvchida fan hamda fanning ma’lum bo‘limlari bo‘yicha umumiy tasavvuri mazkur fan bo‘limi yoki bobni yakunlanganida ifodalanadi.

2. O‘quv mashg‘ulotida tizimlilikdan tashqari, imtihon va sinovlarga oid bilimlar, savollar, atamalarga katta e’tibor qaratiladi. Bu mavzular, atamalar va imtihon topshiriqlariga o‘xshash topshiriqlar imkon qadar qayta-qayta tekshiriladi.

3. Uy vazifasi sifatida ham mustahkamlash topshiriqlari beriladi. O‘quvchi o‘qituvchi tomonidan berilgan barcha topshiriqlarni to‘liq va sifatli bajarishi yaxshi baho uchun shart-sharoit hisoblanadi.

4. O‘quvchilarga amaliyotga, hayotiy yoki global hayotga oid mustaqil izlanish, o‘quvchining kreativligini va tadqiqotchilik kompetentsiyalarini rivojlantiruvchi topshiriqlar kamdan-kam holatlarda tavsiya etiladi. Bunday topshiriqlarning berilmasligi sababi hamma vaqt ham yakuniy yechimga erishmaslik, dars mavzulariga bevosita aloqadorlikka ega emasligi va o‘quv jarayoni qat’iy reja asosida tashkil etilishi bunday topshiriqlardan foydalanishga imkon bermaydi. O‘qituvchi o‘quv darsligiga va berilgan mavzuga bog‘liq bo‘lmagan topshiriqlardan foydalanishi amaliyotda kam kuzatiladi. Hozirgi kundagi o‘quv mashg‘ulotlari axborotni yodlash va band qilishga qaratilgan bo‘lib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga to‘sqinlik qilmoqda. O‘quvchilarga o‘quv mashg‘ulotlarda ko‘p holatlarda to‘liq, kompleks topshiriq ustida emas, balki shu kompleks topshiriqning bo‘laklari yoki “qism topshiriqlari” beriladi. Aksariyat hollarda topshiriqlar o‘quvchilarni baholash maqsadidagina foydalaniladi.

Pedagogikaga oid so‘nggi ilmiy-tadqiqot ishlari shundan dalolat beradiki, kundalik-amaliy topshiriqlarni o‘quv jarayoniga keng tatbiq qilish va shu orqali o‘quvchilar tayanch kompetentsiyalarini shakllantirish milliy ta’lim tizimining ta’lim strategiyalaridan biri hisoblanib, bunday topshiriqlar yuzasidan bir qancha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Kundalik-amaliy topshiriqlar ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlarning obyekt bo‘lib kelmoqda. Bundan tashqari, ta’lim standartlari, o‘quv rejasi va dasturlarning mazmuniga bevosita kundalik-amaliy

topshiriqlarining murakkablik darajasidagi topshiriqlarning bajarilishi zaruriy bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalar shaklida belgilanmoqda.

Kundalik-amaliy topshiriqlar atamasi quyidagicha izohlanadi: “umumta’lim fanlariga oid bilimlarni amalda qo‘llay olish, kundalik, hayotiy muammolarni tushunish, yechim topish strategiyalarini bilish va qo‘llash, xulosalar shakllantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar” deya tavsiflanganini aytishimiz mumkin. Kundalik-amaliy topshiriqlarning asosiy markazida real vaziyatlar turadi va bu o‘quvchilarni kognitiv mustaqilligini rivojlantirishga yo‘naltiriladi. O‘quv jarayonida bu kabi topshiriqlardan keng foydalanish o‘quvchilarni hayotiy-amaliy faoliyatga tayyorlashning zaruriy sharti sifatida qaraladi. Kundalik-amaliy topshiriqlar kontseptual jihatdan o‘quvchilar bilimlarining real vaziyatda qo‘llanilishiga, fanlararo bilimlarning o‘zaro integratsiyasiga, qaror qabul qilish ko‘nikmasiga, o‘z yechimini baholashga, qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Kundalik-amaliy topshiriqlar aynan bir o‘quv mashg‘uloti mavzusi bilan chegaralanmaydi, balki real muammo yoki vaziyatga doir topshiriqlar orqali o‘quvchilarni hayotiy-amaliy faoliyatga tayyorgarligi uchun zaruriy bo‘lgan kompetensiyalarning rivojlanganlik holatini baholaydi. Kundalik-amaliy topshiriqlar jamiyat, atrof-muhit, tabiat hodisalari, texnika va texnologiya, insoniyat taraqqiyoti, salomatligi, global va hayotiy hayot, zamonaviy fanlarga oid vaziyatlar, holatlar, ma’lumotlar va muammolarga bog‘lagan holda shakllantiriladi. Misol tariqasida hozirda dolzarb bo‘lgan global iqlim o‘zgarishi, epidemiya, digitalizatsiya (axborotni raqamli shaklga o‘tkazish) va shu kabilar topshiriqlar kontekstida qo‘llanilishi mumkin.

O‘quv jarayonida qo‘llaniladigan topshiriqlar bo‘yicha jahon tajribasi tadqiq qilinar ekan, amerikalik olim R.Xavigxurstning “development task” ya’ni rivojlantirish topshiriqlari tamoyili muhim ahamiyatga egadir. O‘quvchilarni hayotiy-amaliy faoliyatga tayyorlash mazmuni nazariy jihatdan R.Xavigxurstning “rivojlanish topshiriqlari” nazariyasi bilan ko‘p jihatdan uzviyligi yaqqol ko‘rinib turadi. Shaxs voyaga etishi orqali jamiyatda, oilada yangi vazifalarni o‘z zimmasiga oladi. Bu vazifalarga R.Xavigxurst “rivojlanish topshiriqlari” deb tasnif bergan.

R.Xavigxurst “development task” atamasini quyidagicha ta’riflaydi: “rivojlantirish topshiriqlari hayotning har bir qismida bajariluvchi topshiriqlar bo‘lib, shaxsning jamiyatdagi muvaffaqiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi va erkin yashashini ta’minlaydi”. Olim mazkur rivojlantirish topshiriqlarining uchta komponentini ko‘rsatib o‘tadi: fiziologik yetilganlik; madaniy bosim (jamiyatdagi talablar) va shaxsiy maqsadlar; qadriyatlarining



shakllanishi hisoblanadi. Zamonaviy fanlarda mazkur manbalar shaxsiy ko'nikmalarning rivojlanishi, ijtimoiy-madaniy rivojlanish me'yorlari va shaxsiy maqsadlarning rivojlanishi deb ham tavsiflanadi.

Rivojlanish psixologiyasi shaxsning atrof-muhit, jamiyat bilan aloqasi va shu orqali shaxsning rivojlanishida faol pozitsiyasini shakllanishini o'rganadi. R.Xavighurst "rivojlanish" atamasiga ta'rif berar ekan, rivojlanish "yashab o'tgan hayotining natijasi, shu bilan birga kelajak vazifalarini qay darajada qabul qila olishi ko'nikmasi" deb ta'riflaydi. U kelgusi hayotiy, mehnat va shaxsiy faoliyatidagi vazifalarni qabul qilish, shu vazifalarni bajarish uchun zaruriy bilimlarni egallash va qabul qilish ko'nikmasini "insoniyat rivojlanishining motori" deb ta'riflagan. Rivojlanish har doim oldingi hayot bosqichidagi vazifalarning mukammal bajarilishi bilan ta'minlanadi.

Pedagogika va psixologiya fanlarida "Scaffolding" tushunchasi mavjud bo'lib, topshiriqlarni shakllantirishda o'quvchining "hozirgi holati"ni hisobga olingan holda "potensial holati"ga yetkazilishi tushuniladi. Taniqli rus pedagogi L.S.Vigotskiy esa mazkur tushunchani "rivojlanishning keyingi zonasi" deb ta'riflagan. Topshiriqlar avval o'tilgan darslar bilan vertikal bog'liqlikka ega bo'lishi, ularni takrorlashi va mustahkamlashi kerak. Shuningdek, o'quv jarayonida qo'llaniladigan topshiriqlar gorizontal ravishda turdosh fanlar, hayotiy va real vaziyatlar bilan bog'liqlikni aks ettirishi va shu orqali o'quvchilarni hayotiy-amaliy faoliyatga tayyorgarligini rivojlantirishi lozim.

Ma'lumki, o'quv jarayonida foydalanadigan topshiriqlar orqali egallangan bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, turli real vaziyatlarda qo'llab ko'rish, egallangan bilimni baholash maqsadida keng qo'llaniladi. Pedagogik amaliyotda topshiriqlar bir bosqichli hisoblanadi. Topshiriqlar asosan bir savol yoki atamani izohlash, bitta savolga javob berishdan iborat bo'ladi. Topshiriqlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, bu turdagi topshiriqlar o'quvchilarning ilmiy savodxonligini rivojlanishiga yetarli imkoniyat yaratmaydi. Pedagogik amaliyotda topshiriqlarlardan ko'ra savollardan keng foydalaniladi va bu savollar faqat o'zlashtirilgan mavzuga mos ravishda ishlab chiqiladi. Topshiriqlar dars mashg'ulotining maqsadiga erishishini belgilab beruvchi vosita vazifasini o'taydi. Topshiriqlar o'quvchilarning o'quv natijalariga erishilganlikni tekshirish imkoniyatini belgilab beradi. Shuningdek, nazorat topshiriqlari o'quvchidan topshiriqlarni "o'quv jarayonida emas, sinov jarayonida deb qabul qilish talab etiladi va o'quvchining hozirgi holatdagi bilim darajasi belgilanadi".

O‘quv jarayonida foydalanadigan topshiriqlar quyidagicha o‘quv va nazorat topshiriqlariga bo‘linadi:

O‘quv topshiriqlari yangi mavzuni mustaqil yoki sinfda o‘rganish maqsadida tuziladi. O‘quvchilar o‘quv topshiriqlarini o‘zaro almashishlari va taqqoslashlari, topshiriqning yechish usullarini muhokama qilishlari va yechimlarini taqqoslashlari mumkin bo‘ladi. O‘quv topshiriqlari oldindan ko‘rsatilgan usullarni o‘quvchining mustaqil qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish uchun qo‘llaniladi. O‘quv darsliklarida o‘quv topshiriqlari murakkablik darajasiga qarab belgilab qo‘yilgan. Yuqori murakkablik darajasidagi topshiriqlarning bajarilishi o‘quvchining mazkur mavzu bo‘yicha yaxshi o‘zlashtirganligini belgilaydi.

Nazorat topshiriqlari orqali o‘quvchining individual savodxonligi baholanadi. Nazorat topshiriqlari ko‘p hollarda bir qancha o‘quv topshiriqlarining birlashmasidan iborat bo‘lib, ma‘lum vaqtda o‘tilgan mavzularga oid bir qancha topshiriqlarni o‘z ichiga oladi. Mazkur topshiriqlarda mavzulararo topshiriqlar kamdan-kam uchraydi va asosan mavzularga oid topshiriqlardan iborat bo‘ladi. O‘quvchilar ko‘p holatda bunday topshiriqlarni chorak yakunlari yoki sinfdan sinfga ko‘chish imtihonlarida yechishadi.

Ma‘lumki, umumta‘lim maktablarida Tarbiya fani o‘quv dasturi kompetentsiyaviy yondashuv asosida shakllantirilgan. Kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga faoliyat maqsadini ochib beradi, uni o‘quvchilar anglashlariga sharoit yaratadi, yetakchi g‘oyalarni tahlil etadi. O‘quv fanining mazmuni o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi uchun zarur vaziyatlarni yaratadi, taqdim etiladigan bilimlarning qiymatini ochib beradi. O‘quv jarayoni mantiqi va bu jarayonda yangi bilimlarni o‘zlashtirish, amaliy ko‘nikmalarni faollashtirishning ahamiyatli jihatlarini tahlil qiladi. Davlat ta‘lim standartida o‘quvchilarda umumta‘lim fanlarini o‘zlashtirish natijasida quyidagi kompetensiyalar rivojlanishi belgilab qo‘yilgan: kommunikativ kompetensiya; axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi; o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasi; ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi; milliy va umummadaniy kompetensiya; matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Kundalik-amaliy topshiriqlar umumta‘lim maktab o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini, egallagan bilimlarini hayotda qo‘llay olish layoqatiga turli xil topshiriqlar orqali baho berish va mustaqil hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini rivojlanishiga turtki berishga xizmat qiladi. Hozirgi zamon



axborot jamiyati umumta'lim maktab o'quvchilaridan quyidagi qobiliyatlarga ega bo'lishni taqozo etadi:

- o'zgaruvchan hayot sharoitlariga moslashish, zaruriy bilimlarni mustaqil o'zlashtirish, turli-tuman muammolarni hal etish uchun ulardan mohirona foydalanish, butun umri mobaynida hayotda o'z o'rnini topishga qodir bo'lish;
- mustaqil tanqidiy fikrlash, tabiat, global muammolar, real voqelikda yuz berayotgan muammolarni ko'ra bilish va ularni oqilona hal etish yo'llarini zamonaviy texnologiyalar yordamida topish;
- o'zi o'zlashtirayotgan bilimlardan qaerda va qay tarzda foydalanish mumkinligi haqida aniq tasavvurga ega bo'lish;
- axborot bilan mohirona ishlay olish: muayyan muammoni hal etish uchun zarur faktlarni to'plash, ularni tahlil qilish; muammoni hal etishga doir gipotezalarni ilgari surish; zaruriy xulosalar chiqarish; qonuniyatlarni aniqlash; dalillangan xulosalar chiqarish; olingan xulosalardan yangi muammolarni aniqlash va hal etishda foydalanish;
- kundalik-amaliy kompetentsiya doir muzokaralarda ishtirok etishi, o'z munosabatini ilmiy dalillarga asoslanib bildira olishi, turli sohalar va vaziyatlarda boshqalar bilan bahamjihat ishlay olish, har qanday ziddiyatli vaziyatlarning oldini olish yoki ulardan mohirona chiqa bilish.

Kundalik-amaliy topshiriqlar o'quvchilarda kundalik-amaliy kompetentsiyalarni rivojlantirishda vosita vazifasini bajaradi. Kundalik-amaliy kompetentsiya atamasi ham pedagogik amaliyotda keng ishlatiladi. Bu o'quvchilarning kundalik-hayotiy vaziyatlarda o'zini munosib tutishi, qaroq qabul qilishi, kundalik hayot, jamiyatdagi turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarga o'z positsiyasini bildira olish qobiliyatini ifodalaydi. Kundalik-amaliy kompetentsiya bilvosita kundalik hayot, jamiyatdagi turli ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy masalalarga bog'liq tarzda shakllanadi va o'quvchidan mustaqil fikr bildira olishi, qaror qabul qilishi va o'z natijalariga baho berish talab etiladi. Umumlashtirgan holda quyidagicha ta'rif berish mumkin: kundalik-amaliy kompetentsiya – real holat va vaziyatlarda o'z ijtimoiy tajribalaridan foydalangan hal qilinishi mumkin bo'lgan muammolarni tushunish, mohiyatini tahlil qilish, kuzatish hamda tajribaga asoslangan xulosalar chiqarishda o'z bilim va tajribalarini qo'llay olish qobiliyatidir.

O'quvchilarda kognitiv mustaqillikni ta'minlashda kundalik-amaliy topshiriqlar asosiy pedagogik shart-sharoitlardan biri hisoblanadi. Topshiriqlar ishlab chiqishda aynan bir mavzu bilan chegaralanmaslik zarur, topshiriqlar mavzulararo va fanlararo bilimlarni o'z ichiga olgani ma'qul bo'ladi. Shu bilan birga, "ta'lim jarayonida fanlararo bog'liqlik qonuniyati mavjud. Obyektiv

olamning bir butunligi fanlarni uzviy bog‘liqlikda o‘rganishni taqozo etadi”. Shuningdek, fanlararo bog‘liqlik “biri-ikkinchisini to‘ldiradi, barkamol shaxsni shakllantirish, yoshlarni hayotga tayyorlash samaradorligini oshiradi”. Bir fanning turli qismlari kompetensiya tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin va tizimli ravishda yillar davomida shakllanib boradi.

O‘quvchilarda kognitiv mustaqillikni rivojlantirishda ular tomonidan topshiriqlarni bajarishda yo‘l qo‘yilgan xatolar bilan samarali ishlash topshiriqlar ishlab chiqishda e‘tibor talab qiladigan jihatlaridan biri hisoblanadi. O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolar o‘qituvchi uchun topshiriqlarni takomillastirish va mazmunini boyitish uchun xizmat qiladi. O‘quvchilarning topshiriqni yechishda xato qilishidan qo‘rqmaslikka, xatolar orqali yakuniy to‘g‘ri yechimga kelishga rag‘batlantirish kerak. P.Xeuslur va G.Lind o‘zining ilmiy tadqiqotlarida “kimki qanday xato kelib chiqishini bilsa, to‘g‘ri yechim qanday bo‘lishini biladi”, degan qat‘iy xulosaga kelganlar. Pedagogik nuqtai nazardan dars jarayonida xatolar yo‘q qilinishi zarur bo‘lgan yoki yo‘l qo‘yib bo‘lmas yechim sifatida qabul qilinmaydi, balki xatolardan va xatolar orqali o‘rganish mumkin, deb qarash lozim bo‘ladi.

Pedagogik amaliyotda qo‘llaniladigan topshiriqlar kundalik-amaliy topshiriqlardan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

1. O‘quv mashg‘ulotlarida ma‘lum fanga oid bilimlar tizimli o‘qitiladi va mavzular oddiydan murakkabga qarab tizimlab chiqilgan. Bu uzviylik o‘quvchilarning tizimli bilim olishini ta‘minlaydi hamda avvalgi mavzu bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. O‘z navbatida topshiriqlar ham shunga mos ravishda shakllantiriladi. Bunday yondashuvning kamchiligi o‘quvchilar fan yoki fanning boblarida yuzasidan yakuniy dars arafasida umumiy tasavvurlari shakllanadi.

2. O‘quv jarayonida imtihon va sinovlarga oid bilimlar, savollar, atamalarga katta e‘tibor qaratiladi. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur mavzular, atamalar va imtihon topshiriqlariga o‘xshash topshiriqlar imkon qadar qayta-qayta o‘quvchilarga taqdim etiladi.

3. O‘quvchilarga uy vazifasi sifatida mustahkamlash topshiriqlari berilib, o‘quvchi berilgan barcha topshiriqlarni to‘liq va sifatli bajarishi yaxshi baho uchun asos bo‘ladi.

4. O‘quvchilarga kundalik-amaliy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan, real hayotga, kundalik vaziyatlarga yoki global muammolarga oid mustaqil izlanish, kreativlik va tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantiruvchi topshiriqlar deyarli kamdan-kam holatlarda tavsiya etiladi. Albatta, bu kabi topshiriqlarning o‘quv jarayonida qo‘llanmasligiga sabab,



topshiriqlarda hamma vaqt ham yakuniy yechimga erishish ko'p vaqt hamda qayta aloqani taqozo etadi. Boshqa tomondan esa bu kabi topshiriqlarning qo'llanilmasligi dars mavzulariga bevosita aloqadorlikka ega emasligi bilan izohlanadi. Boshqa tomondan esa o'quv jarayoni qat'iy reja asosida tashkil etiladi va topshiriqlar ba'zan ko'p vaqt talab etadi. Topshiriqlar o'quvchilarga jamiyatda, kundalik hayotda, kasbiy hayotda turli vazifalarni mazmun-mohiyatini tushunishi, bu orqali ularda mas'uliyat va javobgarlik hissini his etish etishiga yordam beradi, fanlararo bog'liqlik va mustaqil o'rganishning ahamiyatini anglash imkonini beradi.

Tarbiya fanidan topshiriqlar aksariyat hollarda o'quv mashg'ulotlarining takrorlash va imtihon bosqichlarida ishlatiladi. Topshiriqlar ko'p hollarda asosan o'quvchilarni baholash uchun qo'llaniladi. Baholash esa o'qituvchi uchun o'quvchilarni faollikka undovchi, rag'batlantiruvchi vosita sifatida ko'riladi.

Kundalik-amaliy topshiriqlar odatda o'quvchilarning kundalik hayotni kuzatishi, o'quv mashg'ulotlarida o'rganayotgan bilimlari bilan bog'lashi va ularning muammolarni hal qilish kompetensiyasining rivojlanishiga yordam beradi. Bir qancha javoblari mavjud topshiriqlar esa deyarli uchramaydi. Faqat bilim so'rashga yo'naltirilgan topshiriqlar o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishi kamayishiga, ular uchun fan abstrakt, hayotda kam qo'llaniladigan fan degan xulosaga kelishiga sabab bo'ladi. O'quvchilar uchun berilgan topshiriqlar ularning hayoti, qiziqishi doir ma'lumotlar bilan bog'lansa, fanning muhimligini anglash oson bo'ladi.

N.Sheker va J.Gerdes fikricha, "sxemaga solingan doimiy takrorlanuvchi topshiriqlar o'rganilgan bilimning chegaralangan miqdorda qo'llash imkoniyatini beradi". Tadqiqotchilar "o'quvchilar topshiriqlarni yechishni o'rganishadi, ammo muammolarni hal etishni esa kamdan-kam holdagina o'rganishadi" degan qat'iy fikrni ta'kidlab o'tadilar. Bayon etilgan ilmiy tahlillar asosida o'quv mashg'ulotlarida beriladigan topshiriqlarning funktsiyasi o'quvchilarning muammoli vaziyatlarni hal qilishga bo'lgan munosabatlarini o'zgarishini taqozo etishi lozim degan fikrimizni bayon etishga asos bo'ladi.

Umuman olganda, ijtimoiy-gumanitar fanlarda keyingi yillarda ko'p yechimli topshiriqlar shakllantirishga keng e'tibor berilmoqda. Ko'p yechimli topshiriqlarda bir yoki bir qancha qonuniyatlar asosida yondashishni nazarda tutadi. Topshiriqni yechishni bitta usul bilan tushuntirish oddiy, boshqa tomondan maqsadga muvofiq bo'lmagan usuldir. Albatta bu orqali o'qituvchi qisqa vaqt ichida maqsadga erishadi. Natijada o'quvchilarning bir topshiriq bo'yicha kam miqdordagi ma'lumotlar keltirilgan topshiriqlar bo'yicha



yechim topish, mulohaza yuritish, mantiqiy fikrlash, qiyosiy solishtirish kabi asosiy ko‘nikmalari rivojlanmasligiga sabab bo‘ladi. Bunday topshiriqlar “o‘quvchilarning tor fikrlashga va birgina yechim orqali topshiriqlarni echish va boshqa yechim yo‘llarini qidirmaslikka undaydi”.

Adabiyotlar:

1. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Смысл Экасто, 2005. – С. 220.
2. Gudjons H. Intelligent practice. Methods and strategies // <https://www.fachportal-paedagogik.de/literatur/vollanzeige.html>, 26 (2006) 138-139. – P. 13.
3. Gibbons P. Unterrichtsgespräche und das Erlernen neuer Register in der Zweitsprache// In: Mecheril, P., Quehl, Th. (Hrsg.): Die Macht der Sprachen. Englische Perspektiven auf die mehrsprachige Schule. Münster u. a.: Waxmann 2006. – P. 269-290.
4. Kulgemeyer C. PISA tasks in comparison. Structural analysis of the natural science items from the PISA runs 2000 to 2006 // Books on Demand GmbH, 2009. – P. 312.
5. Reiss K., Weis M., Klieme E., Köller O. Basic education in an international comparison // 1st edition. Münster: Waxmann, 2019. – P. 266.
6. Riedl A. Didactics of vocational training// Stuttgart: Steiner (pedagogy) 2004. – P. 121.
7. Havighurst R. Human Development and Education // David McKay, New York 1953. – P. 312.
8. Stangl W. The structure of development tasks //2020https://Arbeit_blaetter.stangl-taller.at/Psychologieentwicklung/Developmenttasks.html . – P. 45-61.
9. Lethiger H. Learning and performance tasks in competence-oriented teaching // [https://www.budrich-journals.de/index.php/HiBiFo/article/view File/10123/8722](https://www.budrich-journals.de/index.php/HiBiFo/article/view/File/10123/8722). – P. 12-24.
10. Xaliyov J.X. Maktab fizika kursini o‘qitishda zamonaviy energiya manbalariga oid kompetentsiyalarni shakllantirish metodikasi: pedagogika fanlari bo‘yicha fals. dok. dissertatsiya avtoref. – Termiz, 2023. – B. 11 (48).
11. Haeußler P., Lind G. “Task Culture” - What is that? // In: Practice of Natural Sciences - Physics 49 (2000) No. 4. – P. 2-10.
12. Schelten A., Riedl A. Cross-curricular and action-oriented teaching: teaching of prerequisites for the ability to act in professional practice // In: VLB-akzente 6 (2), 1997. – P. 11-13.
13. Schecker H., Gerdes J. Interviews about experiments on movement processes // In: Journal for Didactics of Natural Sciences4, 1998. – P. 61-74.